O‘zbek bolalar folklorida bolalikning qalb tebranishlari, qiziqish va ehtiroslari, voqelikka munosabatlari o‘ziga xos ifodasini topgan. Bolalar shular bilangina cheklanmaganlar, ijtimoiy- tarixiy taraqqiyot taqozosi bilan kattalar repertuariga daxldor ayrim folklor namunalarini o‘zlashtirib, “o‘zlariniki” qilib borganlar. Bugungi kunda topishmoqlar, tez aytishlar va qo‘g‘irchoq teatrining tom ma‘noda bolalarniki bo‘lib qolgani hech kimda shubha uyg‘otmaydi.

Bizda o‘zbek bolalar folklori namunalarini yozib olish ishlari ancha kech boshlandi. O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab, ayrim rus oriyentalistlari, umuman, turkiy xalqlar folkloriga e‘tibor bera boshladilar. Jumladan, N. P. Ostroumov va A. Vasilevlar o‘zbek topishmoqlarini to‘plab nashr ettirdilar. A. Divaev qozoq va qirg‘iz allalarini, Shuningdek, qozoq bolalari o‘yinlarini to‘plashga kirishdi. A. N. Samoylovich tatarlarning tez aytishlari, V. Gordlevskiy usmonli turklar va M. F. Gavrilovlar qirgiz tez aytishlariga oid kuzatishlarini e‘lon qildilar. N. P. Pantusov qirg‘izlarning ”To‘qqiz qumaloq“ o‘yinini tavsifladi²¹. Ammo bunday kuzatishlar qat’iy sistemali yo‘nalishga ega bo‘limganligidan turkiy xalqlar bolalar folkloriga xos barcha jarayonlarni to‘la aks ettira olmasa-da, turkiy xalqlar bolalar folklarini to‘plashdagi muayyan bir bosqich sifatida favqulodda ilmiy qimmatga molik. Shuningdek, er-xotin N.Nalivkin va M. Nalivkinlarning Farg‘ona vodiysida o‘zbek bolalari turmushiga oid kuzatishlari ham e‘tiborga loyiq. Ular bolalarning o‘tmishdagi ayrim o‘yinlari, shuningdek, ”Oq terakmi, ko‘k terak?“, ”Yo, ramazon“ singari qo‘shiqlariga ham to‘xtalganlar. Bu ma‘lumotlar faktlarni tarixan

²¹ Самойлович А. Н. Крымско-татарские скороговорки. Сб. Музея Аитр. Этногр.; т. У, вып. 1, с. 197.

muqoyasi qilishda qimmatlidir.

O‘zbek bolalar folklori namunalarini yozib olish ishlari, asosan, sobiq ittifoq davrida kengroq yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, M. S. Andreev O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan «Havzak-havzak» ovutmachog’ining 13 namunasini to‘plab nashr ettirdi. Rozi Olim Yunusov ”Alla to‘g‘risida bir necha so‘z“ maqolasini e‘lon qildi. O‘zbek bolalari o‘yinlarini, mavsum va marosimlarga oid o‘yin qo‘shiqlarini va o‘yinchoqlarini to‘plash va etnografik jihatdan o‘rganishda E. M. Peshcherova alohida g‘ayrat ko‘rsatdi. Shu tariqa 20-yillardayoq o‘zbek bolalar folklorshunosligining tamal toshi qo‘yila boshlagan edi. 30-yillarda o‘zbek bolalar folklori namunalarini yozib olish va nashr etish, o‘quv dasturlariga, darslik va majmualarga kiritish ishlari bir qadar jonlandi. Elbek tomonidan tartib berilib, 1937-yilda chop etilgan ”Bolalar qo‘shig‘i“ to‘plami ana shu yo‘ldagi dastlabki jiddiy urinish bo‘ldi²².

O‘zbek sovet folklorshunosligining asoschisi professor Hodi Zarif tashabbusi bilan tuzilgan majmualarda bolalar folklori namunalariga ham joy berildi. Keyinchalik bu o‘ziga xos an‘anaga aylana bordi. Natijada 80-yillarga kelib, bolalar folklori namunalarini bog‘cha bolalariga mo‘ljallangan majmualarga kiritish, hatto ayrim janrga oid asarlar namunasini ular didiga muvofiqlashtirib, rasmi, bezakli qilib nashr etish anchagina yaxshi yo‘lga qo‘yildi.

Shuni ham aytish kerakki, mavsum va marosim qo‘shiqlariga tayanilib, ularning ijodkori har qachon kattalar bo‘lganini e‘tirop etish evaziga bolalar qo‘shiqligini cheklash hollari ham ko‘zga tashlanadi. To‘g‘ri, marosimlarni kattalar uyushtirganlar. Ularning o‘tkazilish tartiblarini ham, rasm-rusumlarini va qo‘shiqlarini ham kattalar ijod etganlari rost. Lekin unutmaslik lozimki, shu marosimlarning aksariyati bolalar ishtirokisiz o‘tmagan hech bo‘lmaganda bolalar tomoshabin sifatida unga qatnashganlar va kattalar bajargan ishlarni ko‘rgach, o‘sha marosimni keyin o‘yinda muqallid qilib o‘zlari bajarganlar, shu muqallidlariga yarasha qo‘shiqlarni to‘qiganlari ham ayni haqiqat. Binobarin, bolalarning ham o‘z

²² Bolalar qo‘shig‘i. Maktabgacha yoshdag‘i bolalar uchun xalq adabiyoti. To‘plovchi Elbek, Toshkent, 1937. –B.34.

marosim va mavsum qo'shiqlari yuzaga kela boshlagan. Bu jarayon davr o'tishi, turmush sharoitining o'zgarishi, yangicha sotsial munosabatlarning tug'ilal borishi tufayli, u yoki bu marosimniig tamoman yuqolishi, yo shunchaki kattalar o'rtasida nufuzini yuqotishi natijasida o'sha marosim bolalar o'yini yoki ijrochiligidagi yashash shakliga o'tishi bilan yanada chuqurlasha borgan. Aytaylik, "Yo, ramazon" tipidagi qo'shiqlar qachonlardir kattalar repertuarida paydo bo'lgan. Inqilobiy davr va yangi sotsial munosabatlar taqozosiga ko'ra bolalar repertuarlariga o'tib hozirgacha yashab kelmoqda. Hozir bu tipidagi qo'shiqlarga kattalar repertuarining namunalari sifatida qarash mutlaqo asossizdir. Bunday holatni "Boychechak", "Chitti gul" tipidagi mavsum qo'shiqlari misolida ham ko'rish mumkin.

Yu.Rajabiy, M. Alaviya, X. Razzoqov, J. Qobulniyozov, Z. Xusaynova, F. Jahongirov, Y. Sultonov va boshqalar tomonidan yozib olingan. Biroq shuni aytish kerakki, nashr etilgan material hali juda oz bo'lib, o'zbek bolalar qo'shiqchiligining yaxlit manzarasini tasavvur etishga imkon bermaydi. Buning oqibatida qadimiy va muttasil yangilanib borayotgan o'zbek bolalar qo'shiqchiligi, qolaversa, butun bolalar folklori birmuncha qashshoq tasavvur etilmoqda. Bu narsa o'zbek bolalar folklorini to'plashga jiddiy kirishish va nisbatan mukammal to'plamlar tuzishni taqozo eta-di.

Kattalar hamisha o'z farzandlarini o'ylab yashaganlar — mehnat va ijod bilan shug'ullanganlar. Bu jarayon ularda bola va uning taqdiri to'g'risida qayg'urish majburiyatining tobora chuqurlashuvi tarzida kechib, talay qo'shiqlarning tug'ilishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, chaqaloqni parvarish etish mas'uliyati behad katta bo'lgan. Onalar ana shu murakkab mas'uliyatni zimmalariga olganlar, o'tkir zakovat, tadbirkorlik, beqiyos insoniy mehribonlik evaziga o'zlarini goho tushunib, goho tushunmay, bolalarni tarbiyalab, o'stirish bilan mamlakatning kelajak tarixini va demak, dunyo tarixini ham tarbiyalab yetishtirganlar. Bu yo'lda qo'shiq ularga madadkor bo'lgan: bolalarini qo'shiq bilan uxlatganlar, yig'lasa kuylab ovutganlar, erkalaganlar, hatto qo'shiq bilan chaqaloqqa daxldor rasm-rusumlarni bajarganlar. Shu zaylda allalar, aytim-olqishlar, ovutmachoqlar,

erkalamalar, qiziqmachoqlar yuzaga kelgan. Shuni ham aytish zarurki, allalar, aytim-olqishlar, ovutmachoqlar, erkalamalar, qi- ziqmachoqlarning ijod etilishida barcha kattalar: otalar, buvilar, bobolar, amma-yu xolalar qatnashgan bo‘lsalar-da, baribir, onalar yetakchi mavqeda turganlar. Qolaversa, o‘sha amma-yu xolalar, buvilar ham, avvalo, ona edilar. Shu sababli xalq og‘zaki poeziyasining ana shu namunalarini onalik folklori tarzida umumlashtirish va xarakterlash asoslidir.

Beshik qo‘shiqlari chaqaloq uch yoshni to‘ldirgunigacha aytilsa, ikkinchi guruhga mansub qo‘shiqlar bola tug‘ilganidan to 6—7 yoshga to‘lgunigacha ijro etiladi va ular beshik bilan bog‘lanmaydi. Bular suyish qo‘shiqlari bo‘lib, erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlardan tarkib topgan, shu ma‘noda erkalash poeziyasi xalq pedagogik dahosining ifodasi bo‘lib, keyinchalik bolalar uchun maxsus adabiyotni yuzaga keltirishda muhim manbaga aylandi.

Tag‘in shunday qo‘shiqlar silsilasi ham borki, ularni kattalar qachonlardir u yoki bu munosabat bilan to‘qiganlar. Bular marosim va mavsum taronalari bo‘lib, davr o‘tgani sayin yangicha sotsial o‘zgarishlar taqozosiga ko‘ra ijtimoiy-estetik mohiyati va mavqeyi o‘zgarib turgan, aniqrog‘i, ijtimoiy-ma‘naviy ehtiyojga ko‘ra kattalar repertuaridan bolalar repertuarlariga o‘tgan. ”Boychechak“, ”Chitti gul“ mavsumiy va ”Yo, ramazon“ marosimiy qo‘shiqlari kabi. Natijada bolalar qo‘shiqchiligida mavsum va marosim taronalari yuzaga kelishiga asos solingan.

Shu bilan kattalar safida o‘sha marosimlarga qatnashgan bolalarning o‘zlarini ham talay taqlidiy qo‘shiqlar ijod etganlar, bolalikning o‘ziga xos mavsumiy an‘analarini yaratganlar va shu mavsumlar mohiyatiga munosib badihalar, yalinchoqlar, hukmlagichlar to‘qiganlar. Shu tariqa kattalar rahnamoligida, aniqrog‘i, ular bilan bevosita hamkorlikda bolalarning o‘z mavsum va marosim taronalari yuzaga kelgan. Bularda xalq etnografiyasining tarixiy ildizlari saqlab qolingga va shular ta‘sirida bolalarning kattalarnikidan farq qiladigan etnografiyasi yuzaga kelgan.

Ulg‘ayish ehtiroslari, o‘yinlar, kattalar bilan munosabatlar, hayotda o‘z mavjudligini anglay borish shav-qu zavqlari murg‘ak qalblardagi tebranishlarni rang-barang ohanglarda tovlantirib, bolalarning o‘zlarini ham qo‘shiqchi-shoирга aylantirib

qo‘ygan. Shu yo‘sinda bolalar ham ijod eta boshlaganlar va aytish mumkinki, ular yaratgan qo‘shiqlar o‘zbek bolalar folklorining xilma-xil janrlarga boy eng katta tarkibiy qismini tashkil etadi. Binobarin, ularga bolalar qo‘shiqlari sifatida qarash tabiiydir.

Bolalar qo‘shiqlari ijro o‘rni, ijtimoiy-estetik mohiyati jihatidan xilma-xil bo‘lib, ularni uch guruhga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

1.*O‘yinga chorlovchi qo‘shiqlar.* Ma‘lumki, bolalar ko‘pchilik o‘yinlarining asosini harakat tashkil etadi va ular harakatli o‘yinlar deb yuritiladi. Biroq bolalar ijrochiligida shunday qo‘shiqlar ham borki, ular harakatdan iborat ana shu o‘yinlarning qaysidir qismi mazmundorligini to‘ldirishga xizmat qiladi: yo o‘yinga chorlaydi, yo o‘yinga zamin bo‘ladi, yo o‘yin uchun shart vazifasini o‘taydi, ya‘ni o‘yinga muqaddimalik vazifasini bajaradi, yo o‘yindagi harakatning yo‘nalishini belgilab, dramatik holatni yuzaga keltiradi; yo o‘yinga yakun yasab, ishtirokchilarni tarqalishga da‘vat etadi. Bu tipdagи qo‘shiqlar o‘yin tarkibidagi komponent hisoblanadi. Chorlamalar, cheklashmachoqlar, guldur-guplar, sanamalar, o‘yin-qo‘shiqlar va tarqalish qo‘shiqlari ana shunday xarakterga ega.

2.*Ma‘naviy o‘yinlar.* Bularni so‘z o‘yinlar deb ham yuritishadi. Bolalar so‘z bilan o‘ynab, ma‘naviy kamolot pillapoyalaridan ildamlaydi. Bola o‘z kamolotining ilk bosqichida so‘z ma‘nosini anglashdan yiroq turadi. Biroq so‘zning sehrli olamiga u bilan o‘ynab turib kira boradi. Onalar allalarining nazokatli ohangi bilan tanglayi kutarilgan bolakay endi tovushlarning mo‘jizakor ohanglaridan huzurlana boshlaydi. Eng muhimi, shunday huzurlanish zavqini o‘zi uchun o‘zi kashf etishga intilib, astasekin so‘zlar hosilasidan tug‘ilgan ritmlarning harakatga yoki fikrga omuxta tarovatidan ma‘no o‘qishga mayli kuchaya boradi.

3.*Turli qo‘shiqlar.* Onalar allasidan ritmik uquvi shakllana boshlagan kichkintoylarda 2—5 yoshliklaridanoq o‘z xatti-harakatlari, o‘yinlarini ritmik jihatdan baholash mayli tug‘iladi. Bu shunchaki baholash bo‘lmay, ularning o‘sha xatti-harakatlari, o‘yinlaridagi hayotiy mazmunli ritmga solishdan iborat poetik ko‘tarinkilik hisoblanadi. Shu sababli ular shovqin solib aytildi va aksar holatlarda

ikki misradan oshmaydi. Tovushlar shovqinining ritmik garmoniyasi hosilasi bo‘lgan bunday qiqillamalar bolalar faoliyatida ilk poetik ijod akti hisoblanishi bilan qimmatlidir.

Turli yoshdagi bolalarning voqelikga poetik munosabatlari chuqurlashgan sayin qo‘shiqlar ham shakl, ham mazmun jihatidan teranlashib, takomillashib boradi. Shu zayilda uchlik, to‘rtlik, beshlik, oltilik va sakkizlik shaklidagi namunalari yuzaga kelgan. Ayniqsa, to‘rtlik shakli bolalar repertuarida keng tarqalgan.

Kompozitsion jihatdan dialog asosida qurilgan qo‘shiqlar ham bir talay. Odatda bunday qo‘shiqlar aytishuvlar (aytishmalar) ham deyilgan.

Hajman anchayin uzun qo‘shiqlar ham bor; rus bolalar folklorshunosligida ular katta qo‘shiq nomi ostida ajratib ta‘kidlangan. Xullas, qo‘shiqlar qanday hajmda va shaklda bo‘lmisin, asosan, bolalar yoshi va saviyasi darajasida ijtimoiy voqelikka poetik munosabatlarning ifodasi sifatida bitilgan.

Bolalar ham hazil-mutoyibaga alohida rag‘bat bilan qarashadi. Bir-birlarida tabiiy yoki ma‘naviy kamchiliklarni payqashgan zahotiyoy, tap tortmasdan, ayashmay, avvaliga nomga qofiyadosh laqab topib, keyinroq — jarayon chuqurlashgani sari shu laqabning ohangdoshligiga omuxta ritmga uyg‘unlashgan hazilni chuqurlashtirib mazax qilishadi, tegishishadi, hatto ota-onalaridagi nojuya xatti-harakatlarni ham boplab yuzlariga solishadi. Bolalar aql-idroklari tulisha va teranlasha borgani sayin sotsial voqelikka ham faolroq munosabatda bo‘lishga harakat qiladilar. Shu faol munosabat jarayonida o‘zlari payqagan ijtimoiy illatlarni masxaralash darajasida jur‘at sezal boshlaydilar. Ana shunday assotsiatsiya zamirida satirk va yumoristik qo`shiqlar silsilasi yuzaga kelgan. O‘zbek bolalar og‘zaki poeziyasida qofiyadosh laqablar va tegishmachoqlar singari yumoristik asarlar bilan bir qatorda satira o‘ti yarqirab turgan masxaralamalar ham anchaginadir.

1.2. Xitoy bolalar qo'shiqlari tarixini o'rganish yo'lidagi izlanishlar

Xitoy Xalq Respublikasida xitoy bolalar folklori bo'yicha juda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu ilmiy izlanishlar har tomonlama bo'lib, bular bolalar qo'shiqlarining tarixini o'rganish, bolalar qo'shiqlarini madaniyat va sportning bir ajralmas qismi sifatida talqin etish xususidadir.

1. Bolalar qo'shiqlari tarixini o'rganish. Seng Zhi Pin (2003-y.) xitoy bolalar folklori tarixi borasida ko'p ilmiy izlanishlarni amalga oshirdi. Uning fikricha, bolalar qo'shiqlari nafaqat bolalar ruhiyati uchun, balki butun insoniyat uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.²³ Chen Yan Chiu (2011-y.) bolalar folklorining qadimgi zamonlardan to hozirgi kunga qadar bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qildi, qolaversa, xitoy bolalar qo'shiqlarining jozibasini barchaga namoyish qildi. Hu Jun Jing (1998-y.) xitoy bolalar qo'shiqlarining turlari borasida, xususan, bolalar qo'shiqlarining ahamiyati va vazifalari to'g'risida ham ilmiy izlanishlar olib bordi.

2. Bolalar qo'shiqlarini madaniyat va sportning ajralmas qismi sifatida o'rganish. Zhou Shu Yun (2003-y.) "4-may harakati"dan so'ng bolalar qo'shiqlarida o'yin, bebos bolalik, sehrgarlik, ijodkorlik kabi xususiyatlarni mavjud ekanligi borasida izlanishlar olib bordi. Vang Ke (2008-y.) "4-may harakati"dan so'nggi bolalar qo'shiqlarining ko'لامи borasida tadqiqotlar olib borgan. Uning fikriga ko'ra, bolalar qo'shiqlarining hajmi va bir-biriga uyg'unlashuvini ta'minlash, foydalanilayotgan tilning sofligi va qofiya bilan hamnafas bo'lishi, bolalarga xos quvnoqlik kabi barcha xislatlarni o'zida mujassam etmog'i kerak.²⁴ Vang Jin He (2008-y.) lingvistik nuqtayi nazaridan bolalar qo'shiqlari matnining qofiyalanishi, qofiya turlari, qofiyaning o'ziga xos xususiyatlari hamda qofiyalanish qonuniyatları haqida ilmiy izlanishlar olib borgan. Luo Shu Lin (2011-y.) bolalar qo'shiqlari klassifikatsiyasi, o'ziga xos xususiyatlari hamda qo'llanilishini "Chet tillarini o'qitish metodikasi" hamda "Chet tilarini o'qitish borasida darsliklar, materiallar yaratish" kabi sohalarda o'rni beqiyos ekanligini o'z izlanishlarida isbotlab berdi.

²³ 曾志平. 传统儿歌魅力探源. 成都师范高等专科学校学报, 2003, 3: 12.

²⁴ 王科. 文学儿歌文体范式研究. 福建论坛: 社科教育版, 2008 (6): 42-44.

²⁵Chen Lin (2007-y.) esa bolalar qo'shiqlarining millat madaniyatida tutgan o'rniga urg'u berib, asosan, diqqatini shu masalaga qaratdi.

3. Bolalar qo'shiqlarining ta'lim jarayonidagi o'rni. Yi Po (2009-y.)ning izlanishlari bolalar qo'shiqlarining maktabgacha bo'lgan ta'limda muayyan tilni o'rganishdagi o'rni haqida bo'lib, aynan shular unga tegishli ilmiy ishlarning tadqiqot obyektini tashkil etadi. Uning fikriga ko'ra, bolalar qo'shiqlari orqali ular dunyo bilan tanishtirish, sodda til orqali ularga bilim berish, bu esa o'z o'rnila, bolalarda so'z boyligini oshirishda, to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishda, nutq ohangini shakllantirishda hissasi beqiyosdir. Chen Ay Fen (2008-y.) Shanshan shahrida joylashgan bir maktabgacha bo'lgan ta'lim muassasasida tajriba o'tkazdi. Ushbu tajribalar natijasida hozirda mavjud bo'lgan bolalar qo'shiqlari va tarbiya masalasi bilan bog'liq bir necha muammolarga yechim topildi. Jin Siao Fang (2009-y.) bolalar qo'shiqlari bolalik davri uchun muhim bog'lovchi vazifasini bajaradi, deb ta'kidlab o'tgan.²⁶ Li Shu Hong (1994-y.) esa rasmlar va bolalar qo'shiqlari o'rtasidagi munosabatning ta'lim jarayonida o'rni haqida qimmatli ma'lumotlar bergen. Tang Lu Ping (2007-y.) bola yoshlik davridanoq musiqa bilan aloqaga kirishishi uning kelgusidagi rivojlanishidagi o'rniga alohida to'xtalgan. U bolalar qo'shiqlari ularga tilni o'zlashtirishda, so'z boyligini oshirishda hamda o'z fikrini erkin bayon etishda kata ahamiyatga egaligini o'z ilmiy ishida ta'kidlab o'tadi. Li Yi (2009-y.) o'z olmiy ishlarida maktabgacha ta'lim muassasalarida foydalaniladigan bolalar qo'shiqlarining ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ta'siri, ularni tanlash mezonlari, bunda, avvalambor, yoshlik xususiyatlari, mavzu jihatidan ularga qiziq bo'lgan qo'shiqlar tanlash kerak ekanligini ta'kidlab o'tgan. Huang Lu Ming (2008-y.) bog'cha yoshidagi bolalarning nutqlarini rivojlanishdagi muhim xususiyatlarni o'rganib chiqqan. U bolalar qo'shiqlarining ularda ijobiy, ezgu vazilatlarni shakllantirishi, tilga bo'lgan qiziqishini orttirishi, chiroyli talaffuz ko'nikmalariga ega bo'lishidagi ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Zhao Zhi Fang (2005-y.) kichkina yoshdagagi bolalarda

²⁵罗树林. 试论儿歌教学的特点及其对“对外汉语教学”的启示[J]. 湖北经济学院学报(人文社会科学版), 2011, 11: 95.

²⁶金晓芳. 开启儿童学习之门的“金钥匙”——自编儿歌在幼小衔接时期的运用价值[J]. 人民教育, 2009, 3.

ingliz tilini qo'shiqlar orqali o'rgatish, ularda chet tiliga bo'lgan qiziqishini orttirish va quvnoq muhitda tilni o'zlashtirishnii maqsadga muvofiq degan fikrni aytib o'tgan.²⁷ Shu Hua (2003-y.) ham ingliz tilini o'rganadigan kichik yoshdagi bolalarda bolalar qo'shiqlarining ahamiyati haqida izlanishlar olib borgan. Uning aytishicha, bolalar qo'shiqlarini o'qish eslab qolish qobiliyatini oshiradi, tilga nisbatan sezgini shakllantiradi, taqlid qilish qobiliyatini o'stiradi. ²⁸ Hu Vey Ming (2005-y.) boshlang'ich ta'limda ingliz tilini bolalar qo'shiqlari oraqlari amalga oshirish haqida ilmiy izlanishlar olib bordi. Chay Sia (2012-y.) ingliz tilidagi bolalar qo'shiqlarida uslublarning mohiyati to'g'risida tadqiqotlar olib borgan. Li Ming (2006-y.) esa ingliz tilidagi bolalar qo'shiqlari va turli o'yinlar orqali boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarga bu tilni o'rgatish jarayonidagi muhim xususiyatlar, bular orqali yuqori natjalarga erishish mumkinligini ilmiy asosda tahlil qilingan uslubiy qo'llanma yaratdi.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan ko'rinish turibdiki, bolalar qo'shiqlarining rivojlanish tarixi, o'ziga xos xususiyatlari hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyati xususida ko'p izlanishlar olib borilgan. Ammo o'zbek va xitoy bolalar qo'shiqlarini taqqoslash borasida hali ma'lumotlar yetarli emas. Qolaversa, o'zbek va xitoy tillaridagi bolalar qo'shiqlari taqqoslab, ularning o'xshash va farqli jihatlari o'rganib chiqilmagan. Ushbu bitiruv malakaviy ishida o'zbek va xitoy bolalar qo'shiqlarini taqqoslash orqali O'zbekistonda xitoy bolalar qo'shiqlari vositasida xitoy tilini yanada chuqurroq o'rgatish mumkin degan xulosaga keldik.

Xitoyliklarni o'zbek madaniyati bilan tanishtirish maqsadida o'zbek bolalar folklori namunalarini xitoy tiliga tarjima qilish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Tarjima bu so'z san'atining yuqori darajasi hisoblanadi. Tarjimondan uzoq muddat davomida tilning sir-asrorlarini o'rganish talab etiladi, qolaversa, tarjimon amaliyotda to'plangan bilimlaridan foydalangan taqdirdagina tarjima texnikasi o'zining ijobiy natijasini beradi. Odatda, tilni o'rganish jarayonida "tinglash, gapishtirish, o'qish, yozish, tarjima qilish" kabi malaka ko'nikmalari zarur bo'ladi. Chet tilini

²⁷赵志方. 儿歌在小学英语教学中的应用. 小学教学设计: 英语, 2005, (7): 108-109.

²⁸昝淑华. 试谈小学英语儿歌教学. 教育实践与研究, 2003, (5): 43-44.

o‘rganishdagi eng qiyin bosqich tarjima hisoblanadi. Shuni aytish joizki, xitoy tili va boshqa chet tillar orasidagi farq katta, nafaqat pin yin yozuvi, balki iyeroglifik yozuv ham xitoy tilini yanada murakkablashtiradi. Bu esa xitoy tiliga tarjima qilishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun o‘zbek tilidagi bolalar qo‘shiqlarini xitoy tiliga aniq, mohirona tarjima qilish qiyin masala.

Shunday bo’lishiga qaramasdan, yuqori darajadagi tarjimon bo’lishga intilish, tarjimaning asosiy mezonlarini puxta egallash va ulardan amaliyotda mohirona foydalanish kerak. Tarjima nazariyasi tarjimashunoslikning asosiy masalasi sanaladi. Bu yo‘nalishda ko‘p izlanishlar olib borilgan. Tarjimondan asliyatga tog‘ri, mazmunga o‘z istagi bo‘yicha o‘zgartirishlar kiritmasdan, tarjima qilinayotgan tilning grammatik xususiyatlarini inobatga olgan holda tarjima qilish talab etiladi. Ingliz tarjimoni Tay Te Chin bu haqda quyidagi fikrni keltirib o‘tadi: ”Tarjima asliyatdagি butun mazmunni tarjimadan so‘ng ham to‘laligicha saqlab qolishi kerak. Tarjima qilingan matn asliyatdagи ruhiyatni o‘zida aks ettira olishi kerak. Tarjima qilingan matn tushunarli va aniq tilda yozilgan bo‘lishi kerak“.²⁹

Amerikalik olim Eugene A Nida tarjima qilingandan so‘ng asl nusxani albatta o‘qib tarjima bilan mos kelishini tekshirib ko‘rmoq kerakligini aytadi. Tarjimaning sifati nima bilan o‘lchanadi? Qanday qilib tarjimani boshqalar uchun tushunarli qilish mumkin? Gap tuzilishi grammatik jihatdan to‘g‘ri kelmasa-chi? degan savollarga olim shunday javob beradi: ”Tarjima qilingan qo‘lyozmani o‘quvchi o‘rnida o‘qib ko‘rish kerak, shundagina mazmun o‘quvchiga qay darajada yetkazilgani ma‘lum bo‘ladi. So‘zma-so‘z, aynan mos tarzda tarjimaga erishish mumkin emas. Bunda manbadagi asosiy ma‘noni yetkazib berish orqali tarjimani muvaffaqiyatli amalgaloshirish mumkin“.³⁰

Xitoyning mashhur tarjimoni janob Zhu Guang Chiyen shunday deydi: ”Badiiy asarlarning deyarli barchasini tarjima qilish mumkin, tarjima

²⁹王科. 文学儿歌文体范式研究. 福建论坛: 社科教育版, 2008, (6): 42-44 页.

³⁰赵志方. 儿歌在小学英语教学中的应用. 小学教学设计: 英语, 2005 ,(7): 108-109 页.

qilingan shakl asliyatga yaqin keladi, ammo yuz foiz aniqlikkha erishish bu faqatgina orzu, xolos“. ³¹

Xitoyning faylasufi Chan Fu Seng tarjimaning 3 ta tamoyilini ishlab chiqqan. Bular: ”Sin, Da, Ya“dir. ”Sin“ bu rostgo‘ylik, ”Da“ tarjima ravon bo‘lishi, ”Ya“ esa ifodalash usulining jozibasini ifodalaydi. Bu tarjima aniq, ravon va tushunishga oson bo‘lmog’i kerakligiga ishoradir.. Mashhur yozuvchi Lu Sun tarjimada ”Sin“ va ”Shun“ga intilish kerak deb hisoblagan. ”Sin“ asl nusxaga mos kelishi kerak bo‘lgan jihatlardir. Ularga quyidagilar kiradi: mazmun, g‘oya, tuyg‘u, uslub va h.k. Asl nusxaning mazmuni tarjimada to‘laqonli aks etishida ”Shun“ning ahamiyati katta. Bunda so‘zlarni matnga mos ravishda tanlash, jumlalar ravon tuzilgan bo‘lishi, tarjima qilinayotgan tilning ifodalash usullariga to‘g‘ri kelishi nazarda tutilgan. ”Sin“ va ”Shun“ bir tizimni tashkil etadi, ular bevosita bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, tarjima shakliga noo‘rin qisqartirishlar kiritish, mazmunni o‘zgartirish mumkin emas. Shuning uchun matnlar o‘zbek va rus tillaridan xitoy tiliga tarjima qilinganda, yuqorida keltirilgan mezonlarni e‘tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Tarjima asl nusxaga mos bo‘lishi, jumlarining ravon tuzilganligi, uslub saqlanib qolganligi kabi talablar bajarilgandagina, tarjimada millatning madaniyati, turmush tarzi aks etadi.

Ma‘lumki, bolalar qo‘shiqlari bir necha turlarga bo‘linadi. Bu jarayonda o‘zbek va xitoy bolalar qo‘shiqlaridagi o‘xshash va farqli jihatlar ko‘zga tashlanadi. Xitoyning ”中国大百科全书“ (”Xitoy ensiklopediyasi“), ”中国儿歌的研究“ (”Xitoy bolalar folklorini tadqiqi“), ”儿童文学教程“ (”Bolalar adabiyoti darsligi“) larida bolalar qo‘shiqlari quyidagi turlarga bo‘lingan: 1.Tabiat haqidagi bolalar qo‘shiqlari.2. Jamiyat haqidagi bolalar qo‘shiqlari. 3.Insoniyat haqidagi qo‘shiqlari.

Tabiat haqidagi qo‘shiqlarda, asosan, kichik hayvonlar, o‘simgiliklar, tabiat hodisalari o‘z ifodasini topgan. Masalan, mushuk, kuchuk, quyon, sabzi, karam, qor

³¹王科. 文学儿歌文体范式研究. 福建论坛: 社科教育版, 2008, (6): 46-48 页.

parchasi, qorbobo, oymomo va hokazo. Jamiyat haqidagi qo'shiqlarda esa oilani doir ifodalovchi tushunchalar, transport vositalarining nomlari, etiketga oid so'zlar, qisqartmalar, bayramlar va boshqalar o'z aksini topadi. Insoniyat haqidagi qo'shiqlarining xususiyatlari biroz boshqacha. Ular uyqu, jismoniy harakat, chiniqish,, mehnatsevarlik kabi mazmundagi bolalar qo'shiqlarni o'z ichiga oladi.

To'laqonli o'zbek va xitoy bolalar qo'shiqlarini taqqoslash maqsadida (muallif Ya.M.) internet saytlari, tashriflar va kutubxona orqali o'nlab kitoblarni o'qib chiqdik va ularni o'zbek tilidan xitoy tiliga tarjima qilishga harakat qildik. Bular orasida internet saytlarida berilgan materiallar katta miqdorni tashkil qiladi. Bu qo'shiqlar matnini nafaqat o'qish mumkin, balki videomateriallar orqali tomosha qilish, hatto musiqa jo'rligida birgalikda kuylash ham mumkin. Xitoy bolalar qo'shiqlari bilan yaqindan tanishish, tadqiq qilish maqsadida ko'plab xitoylik do'starning fikr-mulohazalarini ham o'rgandik bilan, ularning bolalik davrlarida aytgan qo'shiqlarini yozib oldik. Shuningdek, bolalar folklori aks etgan kitoblar bilan ham tanishdik. Masalan, "0-3 岁 学 儿 歌" ("Nol-uch yoshgacha bolalar qo'shiqlari"), "365 夜 儿 歌" ("365 tun bolalar qo'shiqlari"), "童 谣 大" ("Allalar to'plami"), "快 乐 儿 歌" ("Quvnoq bolalar qo'shiqlari"), "儿 歌 童 谣" ("Kichik bolalar qo'shiqlari to'plami") va h.k.

2-bob. O‘zbek va xitoy bolalar folklor qo‘shiqlarining mavzu doirasi, janr xususiyatlari

2.1. O‘zbek va xitoy bolalar qo‘shiqlarida tabiat mavzusining yoritilishi

Bolalar folklor qo‘shiqlari bog‘cha yoshidagi bolalarni tabiatdagi tirik organizmlarlar bilan tanishtirishda yordam beradi. Masalan, hayvonlar, turli xil o‘simgiliklar, tabiat hodisalari, kichik yoshdagi bolalarda ularga nisbatan tasavvurni shakllantirish, ularga nisbatan bilimlarni oshirishga, qolaversa, hayotda tabiatni asrab avaylash, hayvonlarni parvarish qilish kabi odatlarni kamol topishida bunday qo‘shiqlarining o‘rni katta. O‘zbek bolalar folklor qo‘shiqlarida tabiatga oid qo‘shiqlar juda ko‘p.

Turmushda ko‘p uchraydigan hayvonlarni tasvirlovchi o‘zbek bolalar qo‘shiqlarida qo‘y va ot obrazlarini ko‘p uchratishimiz mumkin.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida qo’llanilgan bolalar qo‘shiqlari “Boychechak” bolalar folklor to’plamidan foydalaniilgan. Masalan:

Dada, siz olib bergen	爸，你给我买的小洋
Qo‘zichoq hech yurmaydi.	怎么也不想走路？
Ko‘tarib qo‘ymaguncha,	你把它站起来呀！
Qiziq, o‘zi turmaydi.	奇怪，它自己不想站起来？

Bir otim bor ajabgina,	我有一头出色的马
Dumchasi bor gajakkina,	它有一条独特的尾巴
Hali kelsa, ko‘rasiz,	你们看，它快过来了
Kula-kula o‘lasiz!	看到了，就会笑得不得

O‘zbek bolalar xalq qo‘shiqlatida qushlar obrazi ham uchraydi. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi badiiy parchani keltirib o‘tamiz:

Qaldirg‘och, g‘och-g‘och,	燕子，燕子
Eshigingni tezroq och.	

Eshigingni ochmasang,
Menga yordam bermasang,
Do'stlashmayman sen minan
Gaplashmayman sen minan.
Ashulalar aytmayman,
Uchib kelsang qo'ymayman.

请你把你的门给我打开
如果你不原意开门
那就我不帮助你了
那就我不原跟你交朋友了
那就我不原跟你说话了
那就我不原给你唱歌了
你飞来找，我也不欢迎。

Tabiat hodisalarini o'zida aks ettiruvchi qo'shiqlar o'zbek folklorida hajman ko'p. Biz quyida ulardan namunalar keltiramiz.

Ha mayli-yo, ha mayli,
Tog'da o'sar gulxayri.
Bog'da yana nima bor?
Shirin-shakar meva bor.
-Unda nima qilamiz?
-Kiring, qolning, bilasiz,
Ha mayli-yo, ha mayli,
Qilay bog'-u gul sayli.
Olma, anor, shaftoli,
Pista, bodom, qaroli.
Olxo'ri-yu olchalar,
Chillaki-yu bolchalar:
Bizni to'yib yeng, -deydi,
Bizda ko'p davo, -deydi,
Dardga biz shifo, -deydi.

好了，好了
在山上长出了枝红
在果园里有什么？
甜甜的果实
-在那儿你想做什么？
-请进来
好了，好了
那我参观果园吧
苹果，石榴，桃子
开心果，扁桃仁，李子，
李子，樱桃
它们对我说：把我们吃了吧！
我们对你们身体有好处
我们能治好你们的很多病。

Hilolajon, Hilola,
Tog‘ boshi to‘la lola.
Qani chiqib bir dona
Terib oling-chi, bola.
Ketgan qushlar uzoqdan
Yana bizga qaytadi,
Kurtak ochgan shoxlarda
Sayrab qo‘sishiq aytadi.

茜罗拉，茜罗拉！
在山上长着许多郁金香
你快点儿去吧！
快给我们采吧！
秋天飞走的鸟，
又飞回来了。
树上长出了新叶，
鸟儿在树上唱歌。

O‘simliklarni tasvirlovchi qo‘sishqlar o‘zbek bolalar qo‘sishqlarida salmoqli o‘rin egallaydi. Biz quyida shu mavzuda yozilgan qo‘sishqlardan namunalar keltirib o‘tamiz.

Boychechagim boylandi,
Qozon to‘la ayrondi.
Ayroningdan bermasang,
Qozon-tovog‘ing vayrondi.
Qattiq yerdan qazilib chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.
Boychechakni tutdilar,
Tut yog‘ochga osdilar.
Qilich bilan chopdilar,
Baxmal bilan yopdilar.
Qattiq yerdan qazilib chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.
Boychechagim bolasi,
Qulog‘imda donasi
Donasin olay desam,
Chiqib qoldi onasi

我的雪花莲长出来了
锅里盛满着酸奶
如果你不给我酸奶
我就把你的锅砸破
从硬地长出来的雪花莲
从软地长出来的雪花莲
把雪花莲抓住了
把它挂在木柴上
用军刀切光了
丝绒铺满大地
从硬地长出来的雪花莲
从软地长出来的雪花莲
我的雪花莲有孩子
我把它戴在耳朵上

想把一支拾起来
突然它妈妈来了

Xitoy bolalar qo'shiqlari orasida hayvonlar haqidagi qo'shiqlar o'zbek bolalar folklor qo'shiqlariga nisbatan juda ko'p. Masalan: Kichik it haqida:

不要大人背，
不要大人抱，
自己走路自己跑；
就是有点不太妙，
尾一摇，腿一翘，
不讲卫生乱尿尿

Kattalarning orqasida turmagan,
Sen ularga, aytay zinhor tegmagan,
O'z yo'linda, mayli yurgin,yugurgen,
Shuni aytay, sen bo'lmain odobsiz,
Dumini silkitib, oyog'ini ko'tarar,
Hamma yoqni iflos qilib bo'zarar.

Kapalak haqida:

追追，蝴蝶飞。
飞远啦，不见啦，
飞过竹篱笆，
变成一朵花

Kapalak baland uchar,
Quvlayman, quvlayman
Uzoqlarga uchib ketdi,
Ko'rmayman, ko'ramayman,
Bambukli to'siqdan o'tib,
Gulga aylandi qoldi.

Kichik maymuncha haqida:

不洗头，不洗澡，
头上痒痒，身上痒痒，

Boshini yuvmas,cho'milmas,
Boshini, tanasini qashalaydi,

痒的小手到处挠

Qo‘l-oyog‘in tinmay qashalar.

Tuya haqida:

骆驼骆驼好家伙，
驮起大山一座座，
几天不喝不叫渴，
几天不吃不喊饿

Tuya uy hayvoni,
O‘z bugrida katta tog‘ni yetaklab yurar,
Kunlab suv ichmasa-da chanqoq nima
ekanligini bilmas,
Kunlab tuz tortmasa-da ochlik nima
ekanligini bilmas.

Kichik cho‘chqa haqida:

猪儿有双小皮鞋，
泥里水里到处踩，
又不洗来又不晒，
不讲卫生有谁爱？

Cho‘chqada bir juft kichik charm oyoq
kiyimlar bor,
Loyni istagancha bosadi,
Na cho‘miladi, na quyoshda toplanadi,
Tozalikni bilmaydiganlarni axir kim
yaxshi ko‘radi?

Xitoy bolalar folklorida tabiatda mavjud bo‘lgan borliqni ifodalovchi bolalar qo‘sishqlari ham mavjud. Masalan, oy haqida :

月牙弯弯，像只小船，
爬上树梢，挂在天边
船儿摇摇，落在窗前，
来接宝宝，天上游玩

Oy aylanadi, xuddi kichik qayiq kabi,
Daraxtning eng cho‘qqisiga chiqadi,
Osmonga osilib oladi.
Qayiq kabi tebranadi,
Deraza yoniga yaqinlashar,
Bolakayni ko‘rgani va uni

Osmonlarda o‘ynagani chaqirar.

Bahor haqida:

白似雪，香似蜜，
红似霞，黄似梨。
花儿开，真美丽，
蝴蝶飞来又飞去

Qor kabi pok, asal kabi mazali,
Tonggi bulutlar kabi qizg‘ish,
shaftolidek sariq.
Gullar ochilibti, qanchalar go‘zal,
kapalaklar osmon uzra u yerdan
bu yerga uchaverar.

Yoz haqida:

夏天到，真热闹，
花蝴蝶，舞儿跳，
小知了，吹口哨，
蜜蜂采蜜忙坏了
小花猫，不学好，
藏在树下睡觉觉。

Keldi yoz, yaxshi kayfiyat hukm
surmoqda,
Kapalaklar gullar tepasida gir
aylanib raqsga tushar,
Hushtak ovozlari eshitilar,
Asalarilar asal yig‘ish bilan band.
Mushukvoy esa hech ish
qilgisi kelmas,
Daraxt ortiga berkinib mazza
qilib orom olar.

Kuz haqida:

鸭梨黄橙橙，苹果红彤彤。
葡萄紫莹莹，山楂似红灯。
果园大丰收，农民乐融融。

Nok, apelsin, qip-qizil olma.
Uzum shodasi yarqirar,
Qizil chiroq kabi tovlanar do‘lana.
Bog‘larda hosil mo‘l-ko‘l,
Dehqonlar xursand.

Qish haqida:

门口有个雪娃娃，
张着嘴巴不说话。
我拿苹果去喂它，
叫它不要想妈妈。

Eshik ortida turar bir Qorbobo,
Bir so‘z aytolmay yig‘lardi tinmay.
“Onangni o‘ylama”- dedim men unga,
Yupatib bir olmani unga ilindim.

Xitoy bolalar folklorida o‘simgulkarni ifodalaydigan bolalar qo‘sishlari miqdori ancha.

Masalan: Kungaboqar haqida:

太阳太阳，爱种花，
上阳台把种撒；
种出盆盆太阳花。

Sevimli, suyukli kungaboqarim,
Ayvonga chiqib soch nurlaringni;
Guldonga ekilgan
Mening kungaboqarim.

Bodring haqida:

头朝下，玩单杠，练倒挂。
甩一甩，荡一荡，
一天一天在长大。

Boshi pastga boqib turar,
Turnikda o‘ynagisi kelar.
Silkitib, tebratsa,
Kundan kunga o‘sib borar.

Qulupnay haqida:

红红脸儿长麻点，
戴着绿帽扎小辫；
辫儿一根帽上翘，
羞羞答答躲叶间。

Qip-qizil yuzlarida chiqqan kunjut,
Boshiga kiyib olibdi yashil qalpoq;
Qalpoq ustida bir o‘rim, yaproqlar
Ortidan uyalib boqib turar u bizga.

Tarvuz haqida:

一个绿球圆又圆，
切成四块月弯弯；
空了好像小船翘，
星星颗颗来坐船。

Ham yashil, ham dum-dumaloq,
Kessa bo‘ladi to‘rtta yarim oy;
Ichi bamisoli qayiq,
Osmon bo‘m-bo‘sh bo‘lib qolganday,
Axir hamma yulduzlar qayiqni ichida
olgan joy.

Qarag‘ay haqida:

小松树，爬山崖，
学着要把积木搭；
青色积木像小山，
一二三，搭高啦！
搭高了，长大了，
自己搭成小宝塔。

Tog‘ga chiqdi qarag‘ay,
Kubikcha o‘ynagani,
Yashil kubik misli bog‘,
Yig‘ildilar misli tog‘,
Bir, ikki, uch deyishdi va qal‘aga
aylanishdi.

O‘zbekistonning tabiiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda, shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek xalqi asosan go‘sht mahsulotlarini iste‘mol qilishga odatlangan. Bu o‘z-o‘zidan shu va shu kabi holatlar o‘zbek xalq qo‘shiqlarida ham o‘zining badiiy ifodasini topgan.

Qadim zamonlardan o‘zbek xalqining ajdodlari mol, qo‘y, echki, ot kabi hayvonlarga o‘zgacha e‘tibor bilan qaraganlar. Chunki aynan shu hayvonlar ularning iste‘mol mahsuloti, transport vositasiva shaxsiy mulkining bir turi hisoblangan. Insonlarning aynan shu hayvonlarga nisbatan muhabbatlari maishiy hayotda ham aks etgan. Insonlar qayerda, qachon uchrashib qolishlaridan qat‘i nazar bir-birlaridan: ”Mol-qo‘ylaring yaxshimi? “-deb so‘rashgan. Bu savol chuqur ma‘no kasb etgan. Agar javob tasdiq ma‘nosida bo‘lsa, demak, bu insonning yashash tarzi yaxshi degan fikrga kelishgan. O‘zbek xalqi mehnat jarayonida ushbu hayvonlarni kuzatib,xarakter xususiyatlarini ham o‘rganishgan va ulardan bolalar xalq qo‘shiqlarini yaratishda unumli foydalanganlar. kuchidan foydalanganlar, balki ko‘p detallar orqali ularning turmush tarzi, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganib, ularni o‘zbek bolalar folklor qo‘shiqlarini yaratishda foydalanganlar.

Ma‘lumki, qadimda mol o‘zbek xalqi uchun muhim ozuqa manbai hisoblangan. Chunki mol bu go‘sht, sut va teri manbayi sanalgan. Qo‘y va echki ham o‘zbek xalqining sevimli hayvonlariga aylangan. Ayniqsa, ajdodlarimiz echki sutini inson organizmi uchun juda foydali deb hisoblashgan. Shu sababli endigina farzand

ko‘rgan ayol bolasini ko‘krak suti bilan boqa olmasa, echki sutidan foydalangan. Odatda, echki hukmronlik qilish xususiyatiga ega bo‘lgani uchun, qo‘ylarni ular bilan birga o‘tlatganlar. Mehmon tashrif buyurganda, echkining go‘shti dasturxonga tortilmagan. Echkidagi qaysarlik xususiyati shunday yo‘l tutishga sabab bo‘lgan. Yana bir sabab shuki, echki go‘shti yosh bolalalarga berilmaydi. Xalq orasida ”echki xarakter“ degan ibora bejizga aytilmagan. O‘zbeklar, o‘z turmush tarzini hisobga olgan holda, farzandlarini erkalab ”toychog‘im, qo‘zichog‘im, bo‘talog‘im“ deb atashgan. O‘zbek bolalar folklor qo‘shiqlarida biz yuqorida nomlarini zikr etgan hayvonlar tasvirini uchratishimiz mumkin. Qadimdan o‘zbek xalqining eng muhim faoliyati bu chorvachilik hisoblangan shu sababli, bolalariga yoshliidan ularga e‘tiborli bo‘lish, g‘amxo‘rlik qilish kabi odatlarni o‘rgatganlar.

Xitoy tilida esa ko‘proq mushuk, kuchuk, quyon kabi hayvonlar haqida qo‘shiqlar yaratilgan, Masalan,

小兔子乖乖,

Quyonginam, yuvvoshginam,

把门开开, 妈妈要进来

Eshikni och onam keldilar

Mushuk haqida qo‘shiq

妈妈织毛衣,

Onam kiyim to’qar,

小猫真有趣,

Mushukni qiziqishi oshar,

抱着毛线团,

U yerdan-bu yerga sakrab,

蹦来又蹦去

Iplarni miriqib o’ynar

Ushbu qo‘shiqlarda hayvonlarning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari, ularning insonlarga bo‘lgan munosabati aks ettirilgan.

O‘zbek va xitoy madaniyatida yil fasllariga nisbatan bo‘lgan munosabat o‘xhash: har bir yil fasl dehqonlarning hosil olishiga ta‘siri katta. Bu ham bolalar qo‘shiqlarida o‘z aksini topgan. O‘zbekistonda Xitoy kabi 4 fasl mavjud bo‘lib, har bir fasl o‘z ranggiga ega. Masalan, qish oq rang, bahor va yoz yashil, kuz fasli uchun

sariq va qizil ranglar ramz sanaladi. Ko‘plab davlatlar qo‘shiqlarida kuz fasli qarilik,qayg‘u timsolida qo‘llaniladi, Xitoyda esa xursandchilik fasli hisoblanadi. Kuz faslida hosil bayrami nishonlanadi. O‘zbek bolalari uchun ham bu fasl xursandchilikni anglatadi, chunki aynan kuz faslida ko‘plab meva va sabzavotlar pishadi, qolaversa, uzoq muddatli yozgi ta‘tildan so‘ng o‘quvchilar o‘z sinfdoshlari bilan uchrashish imkoniga ega bo‘ladilar.

Qish faslida O‘zbekiston va Xitoy davlatlarida ko‘p o‘xhash jihatlar ko‘zga tashlanadi. Har bir bolalar qo‘shiqlarida qish faslini aks ettiruvchi qor parchasi, chang‘i uchish, do‘sstar bilan Qorbobo yasash kabi tasvirlarni ko‘rishimiz mumkin. Yana shu narsani aytish joizki, 31-dekabrda O‘zbekistonda Yangi yil bayrami keng nishonlanadi. Bolalar ushbu bayramda Qorbobodan sovg‘a kutadilar. Bolalar yangi yil uchun she‘r yod olishlari va Yangi yil kechasi uni Qorboboga ifodali o‘qib berishlari kerak, aks holda Qorbobo ularga sovg‘a bermaydi. Ushbu bayram an‘anaviy bo‘lmasa-da, lekin Sobiq ittifoq davridan boshlab keng nishonlanadi. Xitoy bolalari Bahor bayramini (xitoyliklarning an‘anaviy Yangi yil bayrami) nishonlaganda, maxsus qo‘shiqlarni yod oladilar. Yoz fasli barcha bolalarning sevimli fasli bo‘lsa kerak, sababi yoz faslida bolalar yozgi ta‘tilga chiqadilar, ko‘chaga chiqib do‘sstar bilan o‘ynashlari mumkin. Odatda, o‘zbek bolalari yozgi ta‘tilda bobo va buvilarini ko‘rgani boradilar, butun yoz fasli davomida suv havzalarida suzadilar, quvlashmachoq, koptok o‘ynaydilar. Xullas, har yerda bolalar kulgusini eshitish mumkin bo‘ladi.

Yoz fasli haqida:

Olma, anor, shaftoli,
Pista, bodom, qaroli.
Olxo‘ri-yu olchalar,
Chillaki-yu bolchalar:
Bizni to‘yib yeng, -deydi,
Bizda ko‘p davo, -deydi,
Dardga biz shifo, -deydi.

苹果，石榴，桃子
开心果，扁桃仁，李子
李子，樱桃
它们对我说：把我们吃了吧！
我们对你们身体有好处
我们能治好你们的很多病。

Ammo bahor fasli yoz faslidan oldin, qish faslidan so‘ng keladi. Shu sababli bahor fasli uzoq kutilgan fasl bo‘lib, u qalblarga iliqlilik olib keladi, butun tabiat yangilanadi.

Masalan,

Ketgan qushlar uzoqdan

秋天飞走的鸟，

Yana bizga qaytadi,

又飞回来了。

Kurtak ochgan shoxlarda

树上长出了新叶，

Sayrab qo‘shiq aytadi.

鸟儿在树上唱歌。

2.2 Jamiyat haqidagi tushunchalarning o‘zbek va xitoy jamiyat bolalar qo‘shiqlari matnida aks etishi

Jamiyat haqidagi bolalar qo‘shiqlari mazmunini bolalarni kichikligidan kattalarni hurmat qilishga o‘rgatish, insonda yaxshi fazilatlarni shakllantirish kabi xususiyatlar bilan bog‘liq. O‘zbek bolalar folklorida bu turdagи qo‘shiqlar ancha. Xitoy bolalar folklorida buni aytish mumkin.

O‘zbek bolalar folkloridagi jamiyat haqidagi qo‘shiqlar orasida kattalarga bo‘lgan hurmatni ifodalovchi qo‘shiqlar ham mavjud. Masalan, buvilarni ulug‘lab shunday deyiladi:

Buvijon, sochingiz silab,

我用手指梳理奶奶的头发

Barmog‘imga o‘rayman.

温和地说：

Umringizga umr tilab,

祝您长寿

Sizga sihat so‘ray man.

祝您身体健康！

Bolalarni bir-birlari bilan inoq, do‘st bo‘lishga undovchi, tortishib qolganda, gina-kuduratlnarni unutib, yarashtirishga undovchi xalq qo‘shiqlari qo‘shiqlar orasida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Biz quyida ana shunday qo‘shiqlardan namunalar keltiramiz:

-Qilichmi, to‘qmoq?

-军刀还是木棒？

-To‘qmoq!

-木棒！

-Shunday bo‘lsa,

-如果这样

Man san bilan

那我们是 40 多年的朋友。

Qirq yilgacha o‘rtoq

我给卡利穆马驹

Karimga berdim toychoq,

但他不愿意收

U olavermadni har choq.

谁收我的马驹

Toychog‘imni kim olsa,

我和他成为好朋友

Men u bilan chin o‘rtoq!

O‘zbek xalqida ”Qarisi bor uyning parisi bor“ degan naql bor. Bobo va buvi deb atalmish keksa avlodning bolalar tarbiyasida xizmati katta. Bu insonlar nabiralariga qadimgi bolalar qo‘shiqlarini o‘rgatadilar, ularning mazmunini tushuntiradilar. Mazkur qo‘shiqlar bolalar tarbiyasida o‘zining ijobiy ta‘sirini

ko‘rsatadi. Bobo va buvi o‘zbeklarda ikki avlodning tarbiyachisi sifatida ardoqlanadi. Jajji bola dunyodagi yaxshilik va yomonlik haqidagi ilk tasavvurlarni aynan shu insonlardan o‘rganadi. O‘zbeklarda bobo va buvi tarbiyasini olgan bolalar mehribon bo‘lishadi degan gap yuradi.

